



№4
2024



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI | ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMIY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 4/2024

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, professor

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AĞZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Oliy Majlis Senatının jaslar, mádeniyat hám sport máseleleri komiteti baslıǵı orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

BEGIS TEMIRBAEV – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, docent;

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, docent;

OMONILLA RIZAEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ALIMA PIRNIYAZOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc);

YUSUPOV QONÍSBAY – pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

UTEBAEV TAJIBAY - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

SEYTKASIMOV DAULETNAZAR - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc);

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JAÑABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde jılına 2 márte basıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redaksiya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Turan oypatı 29-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI TARBIYASIDA MILLIY QADRIYAT: MOHIYAT VA MAZMUN

Yusupaliyeva D.K.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Annotatsiya: maqolada qadriyat tushunchasining mazmun va mohiyati ilmiy jihatdan batafsil tahlil qilingan. Qadriyatlarimizning turlari va ma’naviy hayotimizdagi ko‘rinishlarining mohiyatiga ham to‘qalib o‘tilgan. Ayniqsa, milliy qadriyatimizning Yangi O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalashdagi ahamiyati va bu boradagi amalga oshirish kerak bo‘lgan ishlarga o‘rg‘u berilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonlarida qadriyatning mohiyat va mazmunini oshirishga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: qadriyat tushunchasi, ta’lim, tarbiya, an’analar, millat, meros, globallashuv.

Аннотация: в статье научно подробно анализируются содержание и сущность понятия стоимости. Также затронуты типы наших ценностей и характер их проявлений в нашей духовной жизни. В частности, была подчеркнута важность нашей национальной ценности в воспитании молодежи Нового Узбекистана и работа, которую предстоит провести в этом направлении. Даны предложения и рекомендации по повышению сущности и содержания ценности в образовательных процессах.

Ключевые слова: понятие ценности, образование, воспитание, традиции, нация, наследие, глобализация.

Abstract: the content and essence of the concept of value are scientifically analyzed in detail in the article. The types of our values and the nature of their manifestations in our spiritual life are also touched upon. In particular, the importance of our national value in educating the youth of New Uzbekistan and the work to be done in this regard was emphasized. Proposals and recommendations on increasing the essence and content of the value in educational processes are given.

Key words: concept of value, education, upbringing, traditions, nation, heritage, globalization.

Kirish. So‘ngi paytlarda yoshlar ta’lim-tarbiya jarayonda negadir iqtisodiy ko‘rsatgichlar yuqorilab, qadriyat tushunchasi biroz o‘z qiymatini zaiflashtirgandek sezilmoqda. Ya’ni, tarix azaliyatidan sayqallanib, tafakkur olamimizning buyuk cho‘qqisi bo‘lgan milliy qadriyatimizning tub mazmun va mohiyatiga urg‘u berish, uni moarifning bosh mezonini sifatida asrashimiz dolzarb

masalalardan biri ekanligini doimo his qilishimiz joizdir. Shunki, kelajakka katta umid – tarixiy tarbiya, milliy qadriyatimizning ildizidan boshlanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, zardo‘штиylarning muqaddas kitobi – “Avesto”da hamda buyuk ajdodlarimiz – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida insonda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishda oila va milliy qadriyatlar masalasi asosiy o‘rinni egallagan. Yangi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasida asriy qadriyatlarimizning mohiyati va mazmunidan foydalanishda avvalo, mazkur tushunchasi har tomonlama idrok etishimiz kerak. Quyida mazkur so‘zlarning ma’nolarini ilmiy va falsafiy jihatdan tahlil etamiz.

Asosiy qism. “Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”. “Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”. “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”, – degan ta’riflar berilgan. Bu esa, o‘z navbatida, qadriyatlarning ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq xoslik shaklidir. Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi [1: 5]. Qadriyat “inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”dir [2: 97]. Akademik I.Karimov: “Tarixiy tajriba, an’analarning meros bo‘lib o‘tishi – bularning barchasi yangidan-yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog‘i lozim” – deganlaridek, har kunimiz tarix ekanligini chuqur his qilgan holda, an’alarimizni tafakkuri tiniq, ongi oqil Yangi O‘zbekistonning kelajak yoshlarini tarbiyalaydigan faqat elakdan o‘tgan, an’alarimizni asrab qolishimiz va qadriyatga aylantirishimiz zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Qadriyat deganda biz ming yillar davomida shakllangan, odamlarning hayoti, ichki dunyosidan mustahkam o‘rin olgan, hech qaysi rasmiy hujjatda aks etmagan bo‘lsa-da, unga barcha amal qiladigan, insonlarning qon-qoniga singib ketgan a’nana va udumlarni tushunamiz. Lo‘nda qilib aytganda, odomzod bor ekan, millat bor ekan, shu millatni ifoda qiladigan, asrlar mobaynida qandaydir muqaddas darajaga ko‘tarilib qolgan alomat-xususiyatlar ham u bilan birga yashaydi. Tabiiyki, ota-bobolarimiz bizga qoldirgan oliyjanob qadriyatlarni, g‘ururimizni ko‘taradigan, xalqimizning obro‘siga obro‘ qo‘shadigan insoniy odat va fazilatlarni saqlash, asrab-avaylash va eng katta boylik tariqasida yangi kelajak avlodlarga yetkazish zarur.

G‘ulomxon G‘ofurov milliy an‘analarga bag‘ishlangan maqolalaridan birida milliy qadriyatlarning quyidagi ko‘rinishlarini tilga olgan: 1) tabiiy qadriyatlar; 2) iqtisodiy qadriyatlar; 3) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar; 4) ma‘naviy qadriyatlar; 5) axloqiy qadriyatlar. Jumladan, “Ota-bobolarimiz ilm o‘rgatish bilan birga farzandlarimizga avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy-ma‘naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar [3: 6]. Keyingi yillarda milliy qadriyatlarni tiklash va ulug‘lash, buyuk avliyo va mutafakkirlarimizning xoki yotgan qadamjolarini obod qilish, ajdodlarimiz merosini o‘rganish borasida ko‘p-ko‘p ishlar qilinayotgani haqida ham uzoq gapirib o‘tirishga hojat yo‘q. Chunki busiz biz buyuk kelajagimizni tasavvur etolmaymiz, millatimizning tomiri, tarixi qancha chuqur bo‘lsa, kelajagi ham shuncha buyuk bo‘ladi, deb tushunamiz [4: 69].

Ayniqsa, yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatning mohiyati va mazmuni yetkazishda institutimiz professor-o‘qituvchilari darslarini “Adiblar hiyobonida” ham yuksak saviyada o‘tmoqda, ayrim mutaxassisliklar muzey, televideniye, axborot-resurs markazlarida va h.k. Bu jarayonlar milliy qadriyatimizning mazmun va mohiyatini ta‘lim-tarbiya jarayonida qisman yetkazishga imkon beradi.

Lekin bu qadriyatning mazmun va mohiyati talabaga mukammal tushuntirilganligini anglatmaydi. Ta‘lim-tarbiya jarayoniga uning mohiyatini singdirish zarur. Chunki “Qadriyat” juda keng tushuncha bo‘lib, unda millatning o‘ziga hos tomonlari, fe‘l-atvori, donishmandligi, milliy g‘ururi o‘z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, millatning madaniyati, iymoni, milliy urf-odati, mehru oqibati, turmush kechirish tarzi, qo‘shiq va raqslari, milliy libosi, milliy tarbiyaning barcha qirralari barcha xalqning o‘ziga xos qadriyatlarida namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlar o‘z mohiyati va amal qilish doirasiga qarab bir necha guruhga bo‘linadi:

1) Tabiat bilan bog‘liq qadriyatlar, ya‘ni insoniyatning yashashi uchun zarur bo‘lgan tabiiy boyliklar, o‘simliklar, hayvonot olamini asrash, ko‘paytirish, tejimli foydalanishini targ‘ib etuvchi g‘oyalar, qarashlar.

2) Iqtisodiyot sohasidagi mehnat va mehnat qurollari malakasi bilan bog‘liq qadriyatlar, shuningdek, sharqona munosabatlar.

3) Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga davlat tuzilmasi, uning huquqiy asoslari – adolat, tenglik, tinchlik, haqiqat singari omillar, davlat ramzlariga bo‘lgan hurmat.

4) Ma‘naviy qadriyatlar – millatimiz tomonidan yaratilgan va bizgacha yetib kelgan ilmiy-falsafiy, axloqiy qarashlar, diniy, tarixiy, badiiy, san‘at bilan bog‘liq yodgorliklar.

Shunday qilib, milliy qadriyat muayyan millatning avloddan-avlodga o‘tib, uzoq vaqt saqlanib kelingan axloqiy normalari, g‘oya va diniy e‘tiqodi, urf-odat va

marosimlarini o'z ichiga oladi. Qadriyat tushunchasi turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi tabiiy. Ayni paytda ana shu qadriyat ko'rinishlari, sohalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir-biriga ta'sir ko'rsatadi hamda fuqoralarning siyosiy hayotga qarashlariga, siyosiy munosabatlarga baho berishlariga o'zining ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Turli xalqlar o'z hayot tarzlarida o'zlari uchun muayyan qadriyatlarni "andoza" qilib olishlari tabiiy. Buni uzoq tarixiy jarayonlar misolida, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liqlikda ko'rilganda, u yoki bu xalqning "siyosiy madaniyatini", "siyosiy kadriyatiga aylangan milliy-madaniy merosi" ko'rinishlarini to'g'ri tushunish va baholash mumkin bo'ladi.

Xalqimizning qadimiy an'alarining turgan bitgani foydadan xoli emas, degan fikrga kelmaslik kerak. Qadriyatlarga baho berishda, ularning yaxshilik va yomonlik, odillik va adolatsizlik, go'zallik hamda latofatli tomonlariga e'tibor berish, ba'zi ijtimoiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan udumlaridan tezroq voz kechishga to'g'ri keladi [5: 73]. Yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatning mohiyat va mazmunini har tomonlama real voqealik asnosida yetkazish va tushintirish, targ'ibot-tashviqot ishlari orqali nasihatlashda biroz kamchilik va nuqsonlar ham bo'layotgani tabiiy hodisa. Yoshlarimiz voqealik bilan qadriyat tushunchasini shalkashlashtirib yubormasligi kerak.

Qadriyat – voqealikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-ahloqiy, madaniy-ma'naviy, shuningdek, umummilliy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Inson va bashariyat uchun muhim sanalgan hurriyat, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, totuvlik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat kabi har qanday narsa qadriyatdir. Qadriyat faqat narsa, buyumlarning iqtisodiy qimmatini emas, balki jamiyat va inson uchun muayyan ahamiyat kasb etuvchi voqealik shakllari, ashyolar, hodisalar, talab va tartibning qimmatini ifodalash uchun ham qo'llaniladi. Ijtimoiy hayot insonlarning qadriyat xususidagi qarashlariga ta'sir qilib, uning o'zgarib borishiga sabab bo'lishi muqarrar. Shu boisdan hayotiy zaruratga ko'ra qadriyatlar ham o'zgarib boradi. Qadriyatning falsafiy ko'rinishlariga quyidagilarni e'tirof etish mumkin. Qadriyatlar umumbashariy, milliy, shaxsiy bo'lishi mumkin. Umumbashariy qadriyatlar olam, tabiat va jamiyatning eng muhim jihatlari, qonuniyatlari, aloqadorligini ifodalaydi. Ular hech qachon qadrsizlanmaydi – abadiy. Milliy qadriyat muayyan millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma'naviyati, urf-odat va an'analari, tarixi, bugungi va kelajagi bilan bog'liq. Shaxsiy qadriyat deganda esa inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e'tiqodi, umr ma'nosi, odobi, ichki go'zalligi kabi tushunchalarini qamraydi. Zero, har qanday qadriyat barkamol avlod tarbiyasida muhim omildir [6: 79].

Qadriyatlar o'z mohiyati va amal qilish doirasiga qarab bir necha guruhga bo'linishini yuqorida keltirib o'tdik. Endi milliy qadriyatning mohiyat va mazmun

ochib berishda qadriyatlarning turlarini ham keltiramiz. Qadriyatlar moddiy va ma'naviy qadriyatlarga ham bo'linadi. Moddiy qadriyatlarga kishilarning moddiy ehtiyojlarini bevosita qondiruvchi narsa (ishlab chiqarish vositalari, mehnat predmetlari, moddiy ne'matlar)lar kirsa, ma'naviy qadriyatlar siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy, estetik, falsafiy, axloqiy qadriyatlardan iboratdir. Yashash va rivojlanish uchun moddiy ne'matlar qanchalik zarur bo'lsa, ma'naviy qadriyatlar ham muhimdir. Odob-axloq, urf-odatlar, marosimlar shaklida namoyon bo'ladigan qadriyatlar ham bo'lib, bu xalqimizning eng qimmatli boyligidir. Yaxshilik, halollik, poklik, xayrixohlik, hamkorlik, sodiqlik udumlariga asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan muhim qadriyatlarimiz ham bor. Estetik qadriyatlarga birinchi navbatda barcha tabiiy va ijtimoiy go'zalliklar kiradi. Barcha davlatlarda inson eng oliy qadriyat hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ham saylovoldi dasturining bosh g'oyasi va tomoyili "Inson qadri uchun" deya baralla aytilishi bejiz emas. Nafaqat rahbarlar shu bilan birga barcha yoshlar mazkur iborani teran anglashi kerak. Bu ham milliy qadriyatlarimizning mazmun va mohiyatini ifoda qiluvchi yuksak fazilatdir. Bizda inson ulug'lanadi, u hamma narsadan ustun turadi, hamma narsa inson uchun xizmat qilishi lozim. Milliy qadriyatlar ayrim xalq va millatlar tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisidan iborat. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini har tomonlama qamrab oladi. Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy muammolar ham kiradi. Ularning asosiylari yer yuzida ilm-fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, yadroviy qurollar poygasini to'xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xom ashyos, energiya manbalari va oziq-avqat bilan ta'minlash, koinot va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar kiradi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liq. Ularning har ikkalasi bir-biriga ta'sir etadi, biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan boyitadi. Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmun jihatdan chuqur va keng bo'lib, uni o'z ichiga oladi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlarining yaxlitligi va umumiyligini ifodalaydi. Milliy qadriyatlarning mazmun va mohiyatini bilish, ularga e'tiqod qo'yish yosh avlodda insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi [7: 50].

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning o'zaro bog'liqligi qadriyatlar deyilganda faqat o'tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, kishilar

ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi. qadriyat tushunchasi qadr-qimmat, degan ma'noni bildiradi [8:50]. Yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatning mohiyati va mazmuni hayot dinamizimi va globallashuvning ta'siriga qarab birmuncha darajada o'zgarishi mumkin. Milliy qadriyatlarga jahon media bozorida vujudga kelgan va yashil tezlikda taraqqiyot topayotgan har xil ta'sir vositalari rahna solishi ham bor gap. Chunki, hozir internet va virtuallashuv davridir. Globallashuvning yoshlarga bo'lgan bunday buzg'unchi mafkuraviy ta'sirini biz quyidagi jarayonlarda ham kuzatishimiz mumkin:

- yoshlarning ma'naviy-ahloqiy qiyofasida;
- yoshlarning mehnatga bo'lgan munosabatida;
- yoshlarni qadriyatlarga bo'lgan munosabatida [9: 102];

Ijtimoiy hayot dinamizimi innovatsion izlanishlarga ehtiyoj tug'diradi, kadrlarimizni harakatchan, mobil, taraqqiyot talablariga muvofiqlashib yashashiga undaydi [10:79].

Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi qarashlari o'zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarabgoh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Qadriyatlar katta ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, tarixiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular o'tmish bilan hozirgi kun o'rtasidagi vorisiylikni ifodalaydi, shu tufayli unda millatning tarixi, uning o'tmish hayoti, madaniyati gavdalanadi. Shuning uchun ham har bir siyosiy tuzum, har bir davlat qadriyatlardan o'z maqsadi, o'z manfaati yo'lida foydalanib kelgan va hozir ham shunday bo'lmoqda. Bugungi tezkor jarayonda bizni tashvishga solayotgan muammolardan biri, inson o'zi yaratgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, ahlokiy qadriyatlarni ko'p hollarda paymol qilib kelmoqda. Bunday hol esa bizning qator milliy qadriyatlarimiz yo'qolib borishiga ham sabab bo'lmoqda [11: 107]. Milliy qadriyatimiz xalqimizga, millatimizga, uning ajdodu avlodlariga taalluqli moddiy va ma'naviy boyliklar hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatning mohiyat va mazmuni xalqimiz ongu-shurriga yetkazishda OAVning o'rini va roli beqiyosdir. Bugungi kunda mamlakatimizda milliy qadriyatlarimizni, madaniyatimizni targ'ib etayotgan televideniye va radio kanallarining sonining yildan-yilga ortib borayotganligi, ularda turli, rang-barang ko'rsatuv va eshittirishlarning efiga uzatilayotganligi sohada erishilayotgan yutuqlarimizdan dalolat, albatta. Jaxon miqyosida milliy kadriyatlarni o'rganishni va targ'ib etishni davlat siyosati darajasida e'tirof etilishi va bunga katta mablag'lar sarf etilishi kamdan-kam mamlakatlarda kuzatiladi. Yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatning mohiyat va mazmun haqida gap ketganda, Prezidentimiz

Sh.Mirziyoyevning: “Keyingi yillarda madaniy-gumanitar yo‘nalishda – madaniyat, kino, raqs va tasviriy san’at sohalarini, adabiyot va kutubxonlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz xalqimizga yaxshi ma’lum, albatta. Xususan, xalqaro maqom anjumani, baxshichilik va milliy hunarmanchilik festivallarini tashkil etishimiz va yuksa darajada o‘tkazganimiz Yangi O‘zbekistonni dunyoga keng targ‘ib etishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi [12: 32] – deya ta’kidlab o‘tganini eslash kifoya. Yangi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatning mohiyat va mazmuni uning dunyo miqyosidagi targ‘ib etilishi, tan olinishi va yuksak darajada e’tirof etilishi hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarni shakllantiradigan asosiy mezonlar millatning tarixi, urf-odati, an’anasi, hayotiy qadriyatlari bilan birga ma’naviy merosi, madaniy boyliklari va ko‘hna tarixiy yodgorliklaridir [13: 644]. Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma’naviy qiyofamiz, an’analarimiz va o‘zligimizni anglashga yordam beradi va bu borada xalqni-xalq, millatni –millat sifatida birlashtiradi. Zero, o‘z qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi. Buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, istiqlolni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg‘uradi va kurashadi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatni yangilashga xizmat qiluvchi muhim ma’naviy omil hisoblanadi [14: 113].

Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatning mohiyati va mazmuni oshirish har doim o‘z dolzarbligini saqlab qolaveradi. Mazkur jarayonlarni takomillashtirish maqsadida:

Birinchidan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda milliy madaniyatimizni o‘rganish bo‘yicha putxa yozilgan asarlarni ilmiy jihatdan tadbiq etish;

Ikkinchidan, Yangi O‘zbekistonda amalga oshiralayotgan siyosatning tub mohiyatini milliy qadriyatlarimiz bilan uyg‘unlashtirish va rivojlantirish;

Uchinchidan, milliy qadriyatlarimiz bo‘yicha ta’lim muassasalarida qo‘llanmalar sonini keskin oshirish va mobil dasturlar yaratish;

To‘rtinchidan, zamon bilan shakllanayotgan an’analarni tahlil qishi va eng foydalilarini qadriyat sifatida e’tirof etish;

Beshinchidan, zamonaviy media makonda milliy qadriyatlarimizning targ‘iboti va tashviqotini oshirish hamda integratsiya qilish kerak deb hisoblayman.

Xulosa. Insoniyat turmush sharoitidagi ijobiy o‘zgarishlar yaxshi holat, lekin kundalik turmushimizda yo‘l qo‘yayotgan kamchilik yoki e’tiborsizliklar ma’kul emasdek tuyilmoqda [10]. Chunonchi, Yangi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatning mohiyati va mazmuni yanada taraqqiy toptirishda avvalo yoshlar tarbiyasiga bee’tibor bo‘lmasligimiz va sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish yaratib berilayotgan keng islohotlardan samarali foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farmonova, M. Qadriyatlar–ma’naviy kamolot asosi. “Tasvir nashriyot uyi”, Toshkent: 2019.
2. Qarang: Umarova N. Yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash – davr talabi// konf. Nomoddiy madaniy meros va etnomadaniy qadriyatlar. Navro‘z, Toshkent: 2014.
3. Farmonova, M. Qadriyatlar–ma’naviy kamolot asosi. “Tasvir nashriyot uyi”, Toshkent: 2019.
4. Haydarov A. Siyosiy madaniyat ma’suliyati. Tafakkur, Toshkent: 2009.
5. Haydarov A. Siyosiy madaniyat ma’suliyati. – Toshkent.: Tafakkur, 2009.
6. Jo‘raqulov F., Qosimov N. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi rivojlanishining tarixiy va zamonaviy asoslari. Turon zamin ziyo, Toshkent: 2016.
7. Abdullayeva Sh.A., Axatova D.A., Sobirov B.B., Saitov S.S. Pedagogika. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti, Toshkent: 2014.
8. Aminova M. Hozirgi davr yoshlar tarbiyasining dolzarb muammolari.//jur. O‘zMU Xabarlarini №2. – Elektron manba, Toshkent: 2018. (102-104 betlar).
9. Alimasov V. Innovatsiya va ta’lim falsafasi. . Madaniyat va san’at sohasida malakali kadrlar tayyorlash – bosh maqsadimiz//konf. Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san’atning o‘rni. Oltin meros press, Toshkent: 2020. – 488 b.
10. Nishonboyeva Q. Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda qadriyatlarning o‘rni va madaniy kompetentlik masalasi . Madaniyat va san’at sohasida malakali kadrlar tayyorlash – bosh maqsadimiz//konf. Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san’atning o‘rni. Oltin meros press, Toshkent: 2020.
11. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. “O‘qituvchi” MU MSHJ, Toshkent: 2021.
12. Ruziyeva R. Urf-odat va an’analar – milliy qadriyatlarni shakllantiradigan mezon sifatida.// elektron jur. Scientific progress № 2. 2021.
13. Inamov Q. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. №4. 2021. www.oriens.uz.
14. Yo‘ldoshev I. Himmatning qiymati. “Fan ziyosi”, Toshkent: 2021.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Раджабова С.Р. СОВРЕМЕННОЕ ВОКАЛЬНОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ: СОЕДИНЕНИЕ ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ В АЦИОНАЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ.....	3
2	Туйчиева Р.Х. СОНАТА ДЛЯ СКРИПКИ И ФОРТЕПИАНО ФАТТАХА НАЗАРОВА В КЛАССЕ КАМЕРНОГО АНСАМБЛЯ.....	12
3	Muxamedjanova Z. YOSH KOMPOZITORLAR IJODIDA KAMER-CHOLG‘U ASARLARINING IJROCHILIK TALQINI.....	17
4	Ражабова Н.Ф. ЛАДЫ НАРОДНОЙ МУЗЫКИ В КУРСЕ СОЛЬФЕДЖИО.....	26
5	Saidxonov A.S. IOGAN SEBASTYAN BAX OHANGLARDAN TARALAYOTGAN HAYOT.....	31
6	Muxamedjanova Z. B.TURSUNBOYEVNING FORTEPIANO UCHUN “SAVTI KALON SOQIYNOMASI” MAVZUSIGA VARIATSIYASI TAHLILI VA TALQIN MASALASI.....	36
7	Чаршемов Ж.А. ОРКЕСТР УЧУН КОНЦЕРТ ЖАНРИ ТАРИХИ.....	44
8	Kamalova G.M. JAMIL CHARHEMOVTIŇ “POPURRI” SHÍGARMASINIŇ ÓZGESHELIGI.....	52
9	Allaniyazov B.Q. «MUXAMMES» JANRINIŇ TEORIYALÍQ HÁM ÁMELIY MASHQALALARI.....	58
10	Мухамедзянов К.Т. О ВОКАЛЬНОМ ЦИКЛЕ «РУБАЯТ» НОДИРА МАХАРОВА НА СЛОВА АЛИШЕРА НАВОИ.....	64

KÓRKEM ÓNER

11	Allanbaev R.O. MUZÍKALÍ SHÍGARMALARDIŇ QARAQALPAQ TEATRÍNDÁ TUTQAN ORNI.....	69
12	Djumaniyazov U.M. XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRIDA RUBOB PRIMANING O‘RNI.....	76
13	Áliev N.Ġ. QARAQALPAQ MUZIKA MÁDENIYATINDA DEMLI ÁSBAPLAR.....	81
14	Kamalova G., Dauletbaeva G. DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDIŇ ÁHMIYETI.....	89
15	Karimova N. O‘ZBEKISTONDA O‘TKAZILAYOTGAN XALQARO TIVALLARNING MADANIY ALOQALARDAGI ROLI (Xalqaro asal ivali misolida).....	95
16	Ризаев О. ТЕАТР ВА ЗАМОН.....	105
17	Shukurov A. MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA MILLIY MADANIYATNING AHAMIYATI.....	111

18	Хожаназаров Т. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ОПЕРА САНЪАТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ.....	117
19	Мамадалиев А. ЎЗБЕК МАДАНИЙ МУСИҚА ИЖРОЧИЛИГИДА ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИ АНСАМБЛЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ (чангчилар ансамблида Ф.Содиқовнинг “Ҳумор” асари мисолида)..	122
20	Назаров О. МИЛЛИЙ ЧОЛҒУЛАРДА ЎҚИТИШ УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МУТАХАССИСЛИК ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ (Абдувоҳид Мажидов фаолияти мисолида).....	129
21	Юлдашева М.Б. РОЛЬ МЕЖКУЛЬТУРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ И КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ В ПРОДВИЖЕНИИ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	135

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

22	Gulmanov I.Sh. DÁP ÁSBABÍN OQÍTÍW METODIKASÍ TARIYXÍ..	143
23	Iseev R. FORTEPIANO SABAGÍNDÁ SES GOZALLÍGÍ ÚSTINDE ISLEW PROCESI.....	154
24	Yusupaliyeva D.K. YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI TARBIYASIDA MILLIY QADRIYAT: MONIYAT VA MAZMUN....	160
25	Азимов Б. ИЛМ ВА ТАЖРИБАДАГИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ (Васильев Феоктист Никифорович ижоди мисолида).....	168
26	Казакбаева М. РОЛЬ И РАЗВИТИИ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.....	175
27	Умарова В. РАБОТА НАД ПОЛИФОНИЧЕСКИМИ ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ В КЛАССЕ «СПЕЦИАЛЬНОЕ ФОРТЕПИАНО».....	180

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28	Тлеуниязова Г.Б. ЗАМОНАВИЙ ҚОРАҚАЛПОҚ ЛИРИКАСИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ТАМОЙИЛЛАРИДА ШЕЪР КОМПОЗИЦИЯСИ.....	186
29	Бекбергенова А.У. ПИСЬМЕННЫЙ ПАМЯТНИК «КИТАБИ ДЕДЕМ КОРКУТ» И ДАСТАН «ЕР ЗИЙУАР».....	196
30	Бекбергенова А.У. ҚАРАҚАЛПАҚ ОЧЕРКЛЕРИНИҢ РАЎАЖЛАНЫЎ ТЕНДЕНЦИЯЛАРЫ (1991-2000-жыллар).....	202

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

“STATION X” baspası
Nókis-2024